

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA EKOLOGIK
MADANIYATNI O'YINLAR ORQALI O'RGATISH YO'LLARI**

Yunusaliyeva Guljahon Araboy qizi

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti

Pedagogika va psixologiya kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu tezisdagi boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik madaniyatni o'yinlar orqali o'rgatishning ahamiyati va yo'llari haqida batafsil tahlil qilinadi. Shuningdek, tadqiqot ishida ekologik madaniyatni o'yinlar orqali o'rgatishning samarali usullari bayon qilinib, turli misollar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *ekologik madaniyat, amaliy o'yinlar, mobil ilovalar orqali o'yinlar, interaktiv ta'lim o'yinlari, viktorinalar*

Maktablarda tabiatni muhofaza qilishda ekologik madaniyatning muhim shart-sharoiti sifatida tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish g'oyalarini keng aholi ommasi yaxshi tushunib yetgandagina bu ishni muvaffaqiyatli amalga oshirish mumkin. Shu sababli tabiatni muhofaza qilish haqidagi bilimlarni yoyish hozirgi vaqtning eng dolzarb vazifalaridan biridir. Bu vazifani bajarishda albatta umumta'lim maktablarining ro'li benixoya katta. Binobarin, o'quvchilarni tabiatni sevish, unga hurmat bilan qarash, uni e'zozlash, tabiatni toza tutish, tabiiy resurslarni ehtiyot kilish ruhida tarbiyalash hozirgi maktabning asosiy burchidir. Maktablarda tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga oid ta'lim-tarbiya ishlari o'quvchilarning yosh xususiyatlari va bilim darajalariga moslab olib borilishi zarur.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ekologik madaniyatini shakllantirishda o'yinlar juda muhim ro'l o'ynaydi. Chunki o'yinlar bolalarni qiziqtiradi, ularga ekologik tushunchalarni tabiiy va qiziqarli shaklda o'rgatish imkonini beradi. Quyida ekologik madaniyatni o'yinlar orqali o'rgatishning samarali usullari keltirilgan.

1. Amaliy o'yinlar yordamida o'rgatish. Bu usulda o'quvchilar o'zlari tabiat bilan bevosita muloqot qilishadi va ekologik muammolarni hal qilish bo'yicha amaliy tajriba orttirishadi. Misollar:

“Ko'chat ekamiz” – O'quvchilar o'zlari ko'chat ekishadi va uni parvarish qilishadi.

“Bog'imizni tozalaymiz” – Bolalar maktab hovlisidagi chiqindilarni yig'ishadi va ularni qayta ishlash uchun ajratishadi.

“To'g'ri saralash” – Bolalar chiqindilarni turli idishlarga ajratishadi: plastmassa, qog'oz, shisha va boshqalar.

2. Rolli o'yinlar orqali tushuncha berish. Bolalar turli rollarni ijro etish orqali tabiatga qanday munosabatda bo'lish kerakligini tushunib yetishadi. Misollar:



“Men – daraxtman” – Har bir bola daraxt ro‘lini o‘ynaydi va ularning hayoti uchun suv, quyosh nuri, toza havo qanday muhimligini tushuntirib beradi.

“Ekologik politsiya” – Bolalar ekologik politsiya hodimlari bo‘lib chiqadi va tabiatga zarar yetkazayotganlarni ogohlantiradi yoki ularga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatadi.

3. Interaktiv ta‘lim o‘yinlari yordamida o‘rgatish. Bu usulda turli viktorinalar, interaktiv ilovalar va ta‘limiy o‘yinlar yordamida ekologik madaniyat shakllantiriladi. Misollar:

“Kim tezroq javob topadi?” – O‘qituvchi ekologiyaga oid savollar beradi, o‘quvchilar esa guruhlariga bo‘linib javob topishadi.

“Ekologik jumboqlar” – Ekologiyaga oid rasmi jumboqlarni yig‘ishadi va bu rasm tabiatga qanday foyda yoki zarar keltirishini muhokama qilishadi.

Mobil ilovalar orqali o‘yinlar – “Ekologik olam” yoki “Tabiat himoyachisi” kabi ilovalar bolalarning ekologik bilimlarini oshiradi.

4. Tafakkurni rivojlantiruvchi o‘yinlar. Bu usulda bolalar ekologik muammolarni hal qilish yo‘llarini topishadi va ekologik vaziyat haqida o‘ylashadi. Misollar:

“Agar men tabiat himoyachisi bo‘lsam...” – Bolalar o‘zlari tabiatni asrash uchun qanday loyihalar yaratishlarini tasavvur qilishadi.

“Nima bo‘ladi agar...?” – O‘qituvchi ekologik vaziyat haqida savollar beradi (masalan, “Agar daraxtlar kesilsa, nima bo‘ladi?”), bolalar esa bu holatning oqibatlarini muhokama qilishadi.

5. Jamoaviy ijodiy o‘yinlar. Bolalar jamoaviy faoliyat orqali ekologik masalalarni hal qilishda ishtirok etishadi. Misollar:

“Ekologik teatr” – O‘quvchilar tabiat himoyasi haqida kichik sahna ko‘rinishlari tayyorlashadi.

“Tabiatga maktub” – Har bir bola tabiatga yozilgan maktub yaratadi va tabiatni himoya qilish haqida o‘z fikrlarini bildiradi.

“Ekologik plakatlar” – Bolalar ekologiya mavzusida plakatlar tayyorlashadi va ular orqali boshqa o‘quvchilarni tabiatni asrashga chaqirishadi.

Shuningdek, o‘quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirishda noan‘anaviy dars metodlaridan foydalanish muhim o‘rin tutadi. Bu darslarda o‘quvchilarning ekologiya haqida mustaqil o‘qishi, mustaqil fikrlashi, hamkorlikda ishlashi, ishbop, ro‘lli o‘yinlar tufayli ekologik muammolarni hal qilish, fikri, g‘oyalari, usullarini ishlab chiqishi, taklif qilishi mumkin. Biz boshlang‘ich sinflarda dars o‘tish jarayonida “Hayvonot dunyosini muhofaza qilish” mavzusini o‘tganda noan‘anaviy dars metodlaridan “O‘yin texnolog‘oyalari” (ro‘lli o‘yinlar) yordamida ekologik ta‘limni berishga harakat qilamiz. O‘quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirishda noan‘anaviy dars metodlaridan foydalanish muhim o‘rin tutadi. Bu darslarda o‘quvchilarning ekologiya haqida mustaqil o‘qishi, mustaqil fikrlashi, hamkorlikda ishlashi, ishbop, ro‘lli o‘yinlar tufayli ekologik muammolarni hal qilish, fikri, g‘oyalari, usullarini ishlab chiqishi, taklif qilishi mumkin.

O'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va ta'lim samaradorligini oshirishga imkon beradigan texnologiyalarning o'ziga xos xususiyatlariga ega bo'lishi bilan birgalikda ta'lim jarayonida ta'lim beruvchi, rivojlantiruvchi, tarbiyalovchi, ijodiy faoliyatga yo'llovchi kommunikativ, mantiqiy fikrlash, aqliy faoliyat usullarini shakllantirish, o'z faoliyatini taxlil qilish, kasbga yo'llash, mo'ljalni to'g'ri olishga o'rgatish, xamkorlikni vujudga keltirish kabi funktsiyalarni bajaradi. Biroq pedagogik texnologiyalarning funktsiyalari taqqoslanganda bu funktsiyalar bir xil darajada o'rin egallamasligi ma'lum bo'ladi.

Didaktik o'yin texnologiyasida etakchi o'yinlarni ta'lim beruvchi, rivojlantiruvchi, tarbiyalovchi, kommunikativ funktsiyalar ularga ilova bo'ladi. Muammoli ta'lim texnologiyasida aqliy faoliyat usullarini shakllantirish ijodiy faoliyatga yo'llash mantiqiy fikrlashni rivojlantirish funktsiyalarini etakchi o'rinni egallaydi, qolgan funktsiyalar ularga go'yoki bo'linadi.

Shu asosda pedagogik texnologiyalarning didaktik funktsiyalarni taxlil etish mumkin. O'quv fanlari o'qituvchilari darsda o'rganiladigan mavzuning ta'lim tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlari va pedagogik texnologiyalarning didaktik funktsiyalarini hisobga olgan holda qaysi texnologiyalardan foydalanishi ilmiy metodik asosda tanlangandagina ko'zlangan maqsadga va samaradorlikka erishiladi.

Ta'lim jarayonida didaktik o'yinli texnologiyalar didaktik o'yinli dars shaklida qo'llaniladi. Ushbu darslarda o'quvchilarning bilim olish jarayonini o'yinli faoliyati bilan uyg'unlashtiradi. Shuning uchun o'quvchilarning bilim olish faoliyati bilan uyg'unlashgan darslar didaktik o'yinli deb ataladi. Inson hayotida o'yin faoliyati quyidagi funktsiyalarni bajaradi.

1. O'yin har doim shaxsning ma'lum bir faoliyatiga bo'lgan qiziqishini ortiradi.
2. O'yin davomida shaxsning muloqatda kirishi kommunikativ muloqat madaniyatini ortiradi.
3. Shaxsning o'z iqtidori, qiziqishi, bilimini va o'zligiga namoyon etishda imkon yaratadi.
4. Hayotda va o'yin jarayonida yuz beradigan turli qiyinchiliklarni engishga mo'ljalni to'g'ri olish ko'nikmalari tarkib topadi.
5. O'yin jarayonida ijtimoiy normalarga mos xulq-atvorini egallashi, kamchiliklarga barxam berish imkoniyatini yaratadi.
6. Shaxs strukturasi tegishli o'zgarishlar kiritiladi, ya'ni ijobiy xislatlarni, fazilatlarni shakllantirishga zamin tayyorlaydi.
7. Insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan qadriyatlar tizimi, ayniqsa ijtimoiy ma'naviy, madaniy qadriyatlarni o'rganishga e'tibor qaratiladi. O'yin ishtirokchilarida zamonaviy muloqat madaniyatini rivojlantirish ko'zda tutiladi.

O'yin faoliyati o'zining quyidagi xususiyatlari bilan tavsiflanadi.

1. O'yin ishtirokchilari o'zining rollari, vazifalarini tanlashi natijasida erkin rivojlantiruvchi faoliyat ya'ni o'quvchilarning o'z faoliyatini taxlil va nazorat qilish,

maqsadga muvofiq natijaga erishgan hollarda o'z faoliyatidan ko'ngli to'lishi o'z bilimi va kuchiga ishonch vujudga keladi.

2. Ijodiy jixat tarkib topadi. O'yin ishtirokchilari muammolarini xal etishda ijodiy va mustaqil faoliyatga ega bo'ladilar.

3. O'yin davomida musobaqa raqobat hamkorlik yordamida vujudga keladi. Shu asnoda his xayajonli vaziyat paydo bo'ladi. His-hayajonli vaziyat oqibatida vujudga kelgan bilim ko'nikmalar inson xotirasida bir umr muhlanib qoladi

4. O'yin davomida belgilangan qonun-qoidalarga amal qilinadi. O'yin ishtirokchilariga ijtimoiy qoidalarga mos ongli intizom vujudga kelishiga zamin tayyorlaydi.

5. O'yin mazmunli borishi mantiqiy ketma-ketligi vaqt balansi va o'quvchilarning muammoli vaziyatlarni zudlik bilan xal qilish mo'ljalini to'g'ri olishga o'rgatadi.

Boshqa o'quv va mehnat faoliyati tarkibiga quyidagilar kiradi;

- ✓ O'yinning syujeti,
- ✓ O'yin ishtirokchilari bajaradigan muayyan rollar, vazifalar.
- ✓ Ushbu rollarni amalga oshirish uchun bajariladigan amallar.
- ✓ Ro'l yoki shartli ravishdagi o'yin vositalaridan foydalanish.
- ✓ O'yin ishtirokchilari o'rtasidagi munosabat muloqat kiradi.

O'quvchilarni bilish faoliyatining o'yin faoliyati bilan uyg'un holda tashkil etish quyidagi bosqichlardan iborat bo'ladi.

1. Didaktik o'yindan ko'zda tutilgan maqsadni aniqlash,
2. Didaktik o'yin syujeti va ishtirokchilar faoliyatini loyihalash.
3. O'yindan ko'zda tutilgan maqsadni amalga oshirish yo'llarini belgilash.
4. Didaktik o'yinni maqsadga muvofiq tashkil etish uningbalansi va o'quvchilarning muayyan vaziyatlarini zudlik bilan hal etishda e'tiborni qaratish.
5. O'yin ishtirokchilarini rag'batlantirish.
6. Olingan natijalarni tahlil qilish.
7. Olingan natijalarga muvofiq holda o'yin strukturasi va borishiga tegishli o'zlashtirishlar kiritish.

Didaktik o'yinli darslar orqali quyidagi funktsiyalar amalga oshiriladi:

1. Ta'lim tarbiya berish.
2. Shaxsni rivojlantirish.
3. O'quvchilarni ijod faoliyatiga yo'naltirish.
4. Bilimlarni nazorat va tahlil qilish.
5. Kasblar bilan tanishtirish va kasbga yo'naltirish.
6. O'quvchilarning muloqot va nutq madaniyatini rivojlantirish.

Ta'lim tarbiya jarayonida bu funktsiyalar majmua xolda amalga oshiriladi, lekin quyidagi o'rganiladigan didaktik o'yin turlarida quyidagi funktsiyalar ustunlik qiladi. Qolgan funktsiyalar unga ilova bo'ladi, o'yin mashqlarda bilimlarni nazorat va taxlil qilish ustunlik qiladi. Qolgan funktsiyalar uni to'ldiradi.



Xulosa

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ekologik madaniyatini shakllantirishda o'yinlar juda muhim rol o'ynaydi. Chunki o'yinlar bolalarni qiziqtiradi, ularga ekologik tushunchalarni tabiiy va qiziqarli shaklda o'rgatish imkonini beradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ekologik madaniyatini shakllantirishda o'yinlarda o'quvchilarni ishtirok etishi ularni mustaqil izlanishlariga ham turtki bo'ladi.

O'yin faoliyati o'zining quyidagi xususiyatlari bilan tavsiflanadi. O'yin ishtirokchilari o'zining rollari, vazifalarini tanlashi natijasida erkin rivojlantiruvchi faoliyat ya'ni o'quvchilarning o'z faoliyatini taxlil va nazorat qilish, maqsadga muvofiq natijaga erishgan hollarda o'z faoliyatidan ko'ngli to'lishi o'z bilimi va kuchiga ishonch vujudga keladi. Ijodiy jihat tarkib topadi. O'yin ishtirokchilari muammolarini xal etishda ijodiy va mustaqil faoliyatga ega bo'ladilar. O'yin davomida musobaqa raqobat xamkorlik yordamida vujudga keladi. Shu asnoda his xayajonli vaziyat paydo bo'ladi. His-hayajonli vaziyat oqibatida vujudga kelgan bilim ko'nikmalar inson xotirasida bir umr muhrlanib qoladi. O'yin davomida belgilangan qonun-qoidalarga amal qilinadi. O'yin ishtirokchilariga ijtimoiy qoidalarga mos ongli intizom vujudga kelishiga zamin tayyorlaydi.

O'yin mazmunli borishi mantiqiy ketma-ketligi vaqt balansi va o'quvchilarning muammoli vaziyatlarni zudlik bilan xal qilish mo'ljalini to'g'ri olishga o'rgatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Pedagogik texnologiya turlari/Muallif ishlanmasi
2. Ачилов Б.М. Солнечные опреснители и холодильники / Б.М. Ачилов, О.Х. Шадыев, Т.Д. Жураев; Бухар. гос. пед. ин-т им. С. Орджоникидзе. Ташкент: Фан, 1976 — 104-бет.
3. А.Ф.Сейтжанова и 70-летию д.п.н., профессора Н.К.Ахметова. Казахский национальный педагогический университет имени Абая Институт естествознания и географии г. Алматы. 2022. С. 214-217.
4. Ibrohim Karimov. "Ma'naviyat, falsafa va xayot" Toshkent.,Fanlar Akademiyasi "Fan" 2001 yil.
5. I.A.Karimovning —O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida
6. Mamajonov.Sh.A. Environmental competence: theoretical and methodological approaches // EPRA International Journal of Research and Development (IJRD). Volume: 7 | Issue: 11 | November 2022, SJIF Impact Factor 2022: 8.197| ISI I.F. Value: 1.241| Journal DOI: 10.36713/epra 2016 ISSN: 2455-7838(Online) P. 58-60. (5;23).



7. Mamajonov.Sh.A. Umweltkompetenz als Ziel und Ergebnis moderner
Bildung/ Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities //
ISSN 2749-0866 Vol.2 Issue 1.5 Pedagogical sciences. <http://berlinstudies.de/> P.
825-830 (13.00.00. №7/3).

